MASHRAB LIRIKASIDA TASAVVUFIY QARASHLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Bozorboyeva Shahrizoda Ilhomjon qizi
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy ishlar fakulteti
Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Boborahim Mashrab lirikasida tasavvufiy qarashlarning o‘rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Unda shoirning hayoti, tasavvufiy ta’limot bilan bog‘liq shakllanish jarayoni, ijodiy merosining g‘oyaviy-falsafiy asoslari yoritilgan. Mashrab she’riyatida ilohiy ishq, nafsni yengish, ruhiy poklanish, komillikka intilish kabi tasavvufiy tushunchalarning badiiy ifodasi ochib beriladi. Shuningdek, uning ijodida mazhablararo bag‘rikenglik, insonparvarlik va ma’naviy poklik g‘oyalari yetakchi o‘rin egallashi asoslab beriladi. Maqolada shoirning tasavvufiy dunyoqarashi uning lirik merosining mazmun-mohiyatini belgilovchi muhim omil ekanligi ilmiy xulosalar asosida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlari

Boborahim Mashrab, tasavvuf, ilohiy ishq, nafs, komil inson, ruhiy poklanish, irfon, lirik she’riyat, ma’naviyat, tariqat, fano, tavhid.

Boborahim Mashrabning tug‘ilgan sanasi manbalarda turlicha ko‘rsatiladi (1640, 1641, 1653 yoki 1657-yillar), biroq u Andijon shahrida tavallud topgani ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi. Ayrim manbalarda uning Namanganlik sifatida tilga olinishi esa keyinchalik oilasining ushbu hududga ko‘chib o‘tganligi bilan izohlanadi. Mashrab dastlab diniy ta’limni eshon Mullo Bozor Oxund qo‘lida olgan. Yoshlik davrida u oilasi bilan Namanganga ko‘chib o‘tib, shu yerda tahsilini davom ettiradi. 1665-yilda esa Qashqar shahriga borib, mashhur tasavvuf piri Ofoq Xo‘ja huzurida bilimini yanada chuqurlashtiradi. Biroq uning mazkur muhitdagi faoliyati uzoq davom etmaydi: rivoyatlarga ko‘ra, u shayx dargohidagi kanizaklardan biriga nisbatan mehr qo‘yganligi sababli murshid tomonidan jazolanib, dargohdan chetlashtiriladi.

Mazkur voqeadan so‘ng Mashrab Movarounnahr hududidagi Samarqand, Xo‘jand va Buxoro kabi shaharlarda kezib yuradi hamda Qubodiyon hududida So‘fi Olloyor bilan uchrashgani haqida ma’lumotlar mavjud. 1673-yildan boshlab u umrining oxirigacha qalandarlik ruhidagi hayot tarzini tanlaydi. 1711-yilda Balxga kelgan Mashrab shu yerda mahalliy hokim Mahmud Qatag‘on tomonidan diniy aqidalarga shubha uyg‘otishda ayblanadi va Qunduz shahrida qatl etiladi.

Mashrab shaxsiyati va ijodi XVIII–XIX asrlarda yaratilgan tazkira va tasavvufiy yo‘nalishdagi manbalarda, jumladan, Bade Samarqandiyning “Muzokir ul-as’hob” asarida ham tilga olinadi. Biroq bu manbalarda uning hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar yetarli darajada batafsil emas. Shoirning adabiy merosi haqida ham aniq va to‘liq ma’lumot beruvchi ishonchli manbalar mavjud emas. Uning o‘z asarlarini tizimli ravishda jamlab, devon tuzgani haqida dalillar aniqlanmagan.

Mashrab nomi bilan bog‘liq “Devoni Mashrab”, “Devonai Mashrab”, “Eshoni Mashrab”, “Hazrati Shoh Mashrab” kabi nomlar ostida xalq orasida qo‘lyozma va toshbosma shaklda tarqalgan qissalar mavjud bo‘lib, ularning muallifi va yaratilgan davri aniq emas. Ushbu qissalarda shoirning hayot yo‘li va ijodiy faoliyati muayyan izchillikda bayon etilib, asarlaridan namunalar ham keltiriladi. Biroq vaqt o‘tishi bilan mazkur qissalar turli o‘zgartirish va qo‘shimchalarga uchrab, rivoyat, latifa va sarguzasht unsurlari bilan boyitilgan. Natijada tarixiy shaxs sifatidagi Mashrab obrazi xalq tasavvurida shakllangan badiiy va rivoyaviy timsol bilan qorishib ketgan. Shunga qaramay, ushbu qissalar Mashrab

hayoti va ijodini nisbatan yaxlit holda aks ettiruvchi muhim adabiy-tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyatga ega.[1]

Boborahim Mashrab ma'lum bir muddat davomida Mulla Bozor Oxund qo'lida diniy ta'lim hamda tasavvufiy tariqat asoslarini chuqur o'rganadi. Bu jarayonda u fors tilini egallab, Sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyandalari ijodini katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. Mulla Bozor Oxund Mashrabni yagona Allohga e'tiqod, dunyoviy ne'matlardan voz kechish va tasavvuf qoidalariga sodiqlik ruhida tarbiyalaydi. Shu bilan birga, shoir arab tili, Qur'on, hadis ilmlari hamda tasavvuf adabiyotini puxta o'zlashtirib, o'zbek, arab va fors tillaridagi adabiy merosni mukammal darajada egallaydi.

Mashrab, ayniqsa, fors-tojik adabiyotining yirik vakillari bo'lgan Xoja Hofiz va Jaloliddin Rumiy ijodiga alohida e'tibor qaratadi. Hofiz g'azallarini yod olib, ularni kuylab yurishi, shuningdek, Rumiy qalamiga mansub "Masnaviy" asarining uning dunyoqarashi va ijodiy shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgani kuzatiladi. Mazkur ta'sir keyinchalik Mashrabning "Mabdai nur" asarida ham o'z aksini topadi.

Mashrabning ilmga, ayniqsa tasavvufga bo'lgan chuqur qiziqishi va intilishini anglagan Mulla Bozor Oxund uni tasavvufiy kamolot sari yetaklash maqsadida taxminan 1665-yillarda, ya'ni o'n besh yoshlarida, Qashqardagi mashhur diniy arbob Xidoyatullo Ofoq Xoja huzuriga yuboradi. Ofoq Xoja yosh shoirni e'tirof etib, unga "Mashrab" taxallusini beradi. Ushbu taxallus turli ma'nolarni — maslak, tabiat, fe'l-atvor, ruhiy holat kabi tushunchalarni ifodalaydi.

Mashrab Ofoq Xojani o'zining murshidi komili sifatida qabul qilib, yetti yil davomida uning dargohida xizmat qiladi. Bu davrda u murid sifatida og'ir jismoniy mehnatlarni bajaradi: bir necha yil o'tin tashish, suv tashish va dargoh qo'riqchiligi kabi vazifalarni ado etadi. Ushbu mashaqqatli sinovlar natijasida shoirning nafaqat jismoniy, balki ruhiy kamoloti ham mustahkamlanib, unda tasavvufiy tafakkur yanada chuqurlashadi.

Mazkur davrda Mashrab tasavvuf ilmlarini mukammal egallab, tariqat yo'lini bosib o'tadi. U o'zining ruhiy ustozlari sifatida Ibrohim Adham va Mansur Hallojni e'tirof etadi. Ijodiy faoliyatida esa Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Imomiddin Nasimiy an'analarini davom ettirib, Lutfiy va Alisher Navoiy g'azallariga naziralar bitadi hamda muxammaslar yaratadi.[2]

Shoir ijodida diniy-tasavvufiy mazmundagi asarlarning katta qismi aynan Ofoq Xoja dargohida shakllangan bo'lib, unda Allohga bo'lgan ishq markaziy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Bu davr she'riyatida insonning nafsdan xalos bo'lib, ilohiy haqiqat sari intilishi, komillikka erishish yo'lida sabr-toqat ko'rsatishi asosiy mavzu sifatida talqin etiladi. Shuningdek, shoirning piriga bag'ishlangan va uni "piru rahbar" sifatida ulug'lovchi g'azal hamda muxammaslari ham aynan shu davr mahsuli hisoblanadi.

Taxminan 1672–1673-yillarda Mashrab Ofoq Xoja dargohini tark etishga majbur bo'ladi. Qissalarda bu holat shoirning dargohdagi kanizaklardan biriga nisbatan muhabbat qo'yganligi bilan izohlanadi. Biroq ayrim tadqiqotchilar bu voqea ortida pir va murid o'rtasidagi jiddiy g'oyaviy ziddiyatlar ham mavjud bo'lganini ta'kidlaydilar. Natijada Mashrab dargohdan chetlashtiriladi va u keyinchalik Yorkand, Xo'tan hamda G'ulja kabi shaharlarda istiqomat qiladi.

Keyingi rivoyatlarga ko'ra, Ofoq Xoja tomonidan kechirilganidan so'ng Mashrab yana Qashqarga qaytadi. So'ngra u Toshkentga, Ofoq Xojaning yaqin do'sti bo'lgan shayx Nuriddin huzuriga yuboriladi va vazifani ado etgach, yana Qashqarga qaytib, murshididan Namanganga qaytish uchun ruxsat oladi.

---

[1] Eshonqulov, A. *Tasavvuf va adabiyot*. Toshkent: Fan, 1997.

[2] Is'hoqova, Z. *Mashrab*. Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011.

Shoir o‘z vasiyatiga muvofiq ravishda yaqinlari tomonidan Balx atrofi hududida joylashgan Ishkamish mavzesiga dafn etilgan. Mazkur hudud hozirgi Afg‘onistonning Taxor viloyatiga qarashli bo‘lib, Xonobod shahridan taxminan 30 kilometr uzoqlikda joylashgan va tarixan Vazvolin nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. Ishkamishdan sharq tomonga qariyb bir yarim kilometr masofada Mashrabga atab qurilgan, xom g‘ishtdan bunyod etilgan gumbazli maqbara mavjud. Qabr ustiga arab tilida yozuv bitilgan tosh lavha o‘rnatilgan bo‘lib, unda Qur’on oyatlari hamda shoirning vafot sanasi qayd etilgan. Shuningdek, maqbara devorlariga Mashrab g‘azallari yozilgan matolar ilib qo‘yilgan.

“Majmuai Abdulmutallif Fahmiy” asarida keltirilishicha, Mashrab Qunduz shahrida dorga osib qatl etilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, oradan uch kun o‘tgach, uni qatl ettirgan Mahmudbiy ham halokatga uchragan. Bu holat tasavvuf tarixida muhim o‘rin tutgan Mansur Halloj taqdiri bilan ma’lum darajada mushtaraklik kasb etadi. Ma’lumki, Halloj “Anal Haq” g‘oyasi sababli 922-yilda Bag‘dodda shafqatsizlarcha qatl etilgan. Manbalarda qayd etilishicha, Mashrab ham o‘zining shunday taqdirga duch kelishini oldindan anglagan va bu hol uning she’riy merosida ramziy tarzda ifoda etilgan.[3]

Mustaqillik yillarida Mashrab merosiga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada ortdi. Xususan, 1992-yilda shoir tavalludining 350 yilligi, 2006-yilda esa 365 yilligi keng nishonlandi. Namangan shahrida uning nomi bilan atalgan bog‘ hamda haykal bunyod etildi. Shu davrda shoirning tasavvufiy ruhdagi ko‘plab she’rlari, shuningdek, “Kimyo” va “Mabdai nur” kabi asarlari ilk bor ishonchli manbalar asosida nashr etildi.

Mashrab adabiyot, falsafa va tasavvuf sohalarida boy ilmiy-ijodiy meros qoldirgan mutafakkir sifatida e’tirof etiladi. Uning, ayniqsa, nafsga qarshi kurash haqidagi qarashlari alohida ahamiyatga ega. Shoir riyo va tashqi ko‘rinishga berilib, ichki poklikdan yiroq bo‘lgan soxta zohidlarni tanqid qiladi hamda insonni ma’naviy poklanishga undaydi.

Mashrab ta’limotida nafsni yengishning asosiy vositasi sifatida ishq tushunchasi talqin etiladi. Bu ishq oddiy hissiy kechinma emas, balki insonni komillikka yetaklovchi ma’naviy kuch sifatida izohlanadi. Unda mehr-oqibat, saxovat, sabr, qanoat, adolat, kamtarlik, poklik va boshqa ezgu fazilatlar mujassamdir. Ishq inson qalbini poklab, uni ilohiy haqiqatga yaqinlashtiradi. Shu bois, Mashrab nazarida ishq inson ruhiy kamolotining asosiy manbai va uni yuksak darajaga olib chiquvchi omil sifatida talqin qilinadi.

Tasavvuf adabiyotida she’riyat alohida mavqega ega bo‘lib, ilohiy ishq holatiga yetgan shoirlar o‘z ruhiy kechinmalarini asosan majoziy timsollar vositasida ifodalashga intilganlar. Bunday ijodkorlar mutasavvif shoirlar sifatida e’tirof etiladi. Boborahim Mashrab ijodining g‘oyaviy, axloqiy, falsafiy va irfoniy asosini aynan tasavvuf tashkil etadi. U tasavvuf adabiyoti namoyandasi sifatida nafsni yengish, qalbni yuksaltirish hamda ruhni poklash orqali o‘tkinchi dunyo havaslaridan yiroqlashishga intilgan. Mashrab inson qadrini moddiy boylik yoki tashqi farovonlik bilan emas, balki uning ma’naviy kamoloti va axloqiy fazilatlari bilan belgilaydi.

Mashrab she’riyati markazida ilohiy ishq g‘oyasi turadi. U o‘zini ana shu ishqning devonasi sifatida namoyon etib, qalbidagi kechinmalarni samimiy va jo‘shqin tarzda she’rlari orqali ifodalaydi. Shoirning badiiy tasvirlari kuchli emotsional ta’sirga ega bo‘lib, undagi iztirob, shavq, beqarorlik va ruhiy izlanish holatlari o‘quvchiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Uning asarlarini mutolaa qilish jarayonida inson qalbining ilohiy manbaga intilishi, Haqni topishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va ruhiy iztiroblar aniq namoyon bo‘ladi.

Shoir o‘z asarlarini “dardnoma”, qalbini esa “xasratxona” sifatida talqin qiladi. Bu yerda ifodalangan dard oddiy ijtimoiy yoki moddiy ehtiyojlardan kelib chiqmaydi, balki ilohiy muhabbat bilan bog‘liq ruhiy iztiroblarni anglatadi. Mashrab nazarida bu dard

[3] Hoshimxonov, M. *Mashrabning ijtimoiy-falsafiy qarashlari*. Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent: O‘zFA Falsafa va huquq instituti, 1995. – B. 57–58.

insonning Allohga bo‘lgan intilishidan, ilohiy visolga erishish istagidan kelib chiqadi. Shu bois uning she’riyatida dard va ishq o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin etiladi.

Mazkur dardning yechimi sifatida tasavvufda tavhid va fano tushunchalari ilgari suriladi. Mashrab talqinida ishq ana shu yuksak maqomlarga yetishishning asosiy vositasi hisoblanadi. U ishqni insonni poklovchi, uni ruhiy kamolot sari yetaklovchi qudrat sifatida baholaydi. Ishq orqali inson o‘z mohiyatini anglaydi va ilohiy haqiqatga yaqinlashadi.

Mashrab ijodida ishq barcha diniy-ma’naviy chegaralardan ustun qo‘yiladi. U turli mazhab va qarashlar o‘rtasidagi nizolarni mazmunsiz deb hisoblab, insonlarni yagona haqiqatni anglashga da’vat etadi. Shoir inson qalbida mavjud ilohiy fazilatlarni ko‘ra bilish, uni sevish va shu orqali insonni ma’naviy tubanlikdan qutqarish g‘oyasini ilgari suradi. Uning fikricha, insondagi barcha salbiy xususiyatlar muhabbat va ishq olovida poklanadi hamda komillik sari yo‘l ochiladi.

XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Boborahim Mashrab ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy tafakkurning yorqin namunasidir. Uning she’riyatida ilohiy ishq markaziy g‘oya sifatida namoyon bo‘lib, insonni ma’naviy kamolot sari yetaklovchi asosiy kuch sifatida talqin etiladi. Shoir nafsni yengish, qalbni poklash va ilohiy haqiqatga erishish g‘oyalarini badiiy obrazlar orqali chuqur ifodalagan. Mashrab lirikasida inson qadri uning moddiy holati bilan emas, balki ichki dunyosi, axloqiy fazilatlari va ruhiy yetukligi bilan belgilanadi. U riyo, soxtalik va tashqi ko‘rinishga berilish kabi illatlarni keskin tanqid qilib, samimiylik va ichki poklikni ulug‘laydi. Shuningdek, uning ijodida diniy bag‘rikenglik, mazhablararo totuvlik va umuminsoniy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Umuman olganda, Mashrab she’riyati tasavvufiy g‘oyalar orqali insonni o‘zligini anglashga, ma’naviy poklanishga va komillikka intilishga chorlovchi muhim adabiy meros sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqulov, A. *Tasavvuf va adabiyot*. Toshkent: Fan, 1997.
2. Komilov, N. *Tasavvuf – qalb ilmi*. Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
3. Sultonov, X. *O‘zbek mumtoz adabiyoti*. Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
4. Turaqulov, D. *Mashrab va uning zamoni*. Andijon, 2010.
5. Is’hoqova, Z. *Mashrab*. Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011.
6. Hoshimxonov, M. *Mashrabning ijtimoiy-falsafiy qarashlari*. Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Toshkent: O‘zFA Falsafa va huquq instituti, 1995. – B. 57–58.
7. Sirojiddin Sayyid. *Mashrab she’riyati va xalq og‘zaki ijodi*. “Yoshlik” jurnali, 2017.
8. *Shoh Mashrab. G‘azallar*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2001.
9. www.ziyouz.uz – Mashrab hayoti va ijodiga oid maqolalar.